



## KORREKSION MASHG'ULOTLARNI MODELLASHTIRISHGA O'RGATISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14598148>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Dekabr 2024 yil  
Ma'qullandi: 28- Dekabr 2024 yil  
Nashr qilindi: 31- Dekabr 2024 yil

### KEYWORDS

*Texnologiya, Maxsus pedagogika, mashg'ulot, ta'lim, o'yin.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada bo'lajak logopedlarni korreksion mashg'ulotlarni samarali etish uchun foydalanish mumkin bo'lgan texnologiyalar keltirilgan.*

Maxsus pedagogika yo'nalishida olib boriluvchi nazariy, amaliy mashg'ulotlar hamda malakaviy va pedagogik amaliyot, bundan tashqari talabalarning mustaqil ta'limi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratiladi. Maxsus pedagoglarning kasbiy faoliyati asosan, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish va ularni ijtimoiylashtirishni ko'zda tutadi. Bu jarayon ta'lim subyektlari hamkorligiga tayanadi. Chunki hech bir korreksion-pedagogik ta'lim - oilalar, tor doiradagi mutaxassislar hamda ijtimoiy institutlar ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bularning barchasiga korreksion ish tizimida alohida va o'zaro bir biriga tasir o'tkazuvchi subyekt sifatida qarashimiz mumkin. Agar bir subyekt faoliyati o'zi bajargan ishining o'zi bilangina cheklanib qolsa, korreksion ishning samarasi yuzaga chiqmaydi. O'z-o'zidan bir subyekt boshqa bir subyektga murojaat qiladi. Agar ushbu murojaat aniq bir mo'ljallar va modellarni ko'zda tutgan holda amalga oshirilsa, kutilgan natijalarga erishish imkoniyati kengayadi. Logopedlar aynan o'z mashg'ulotlarida natijaga erishish uchun korreksion mashg'ulotni modellashtiradilar.

Modellashtirish jarayonidayoq hamkor subyektlar funksiyalarini o'z faoliyatiga integratsiyasini bashorat qiladi. Shuning uchun tadqiqotimizda talabalar faoliyati modellashtirishning o'zida bir qancha kasbiy faoliyatga dahldor bir qancha funksiyalarga e'tibor qaratish talab etildi. Asosan kasbiy faoliyatni diagnostik korreksiya, kompensatsiya, defferensatsiya, avtomatizatsiya kabi funksiyalarning talabalar tomonidan to'liq anglanishiga tayandik. Buning uchun ixtisoslik modullarining o'qitilishi, bu jarayonda talabalar xususiyatlariga yo'naltirilgan metodlardan foydalanilishi muhim xisoblandi. Tajriba davomida modullardan talabalarning bo'shliqlarini aniqlash bo'yicha diagnostika test olib borildi. 1-bosqichga qabul qilingan har bir talabaning o'ziga xos individual potensialini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasida talabalar kontingenti orasidan nazariyachi, amaliyotchi hamda xizmatga yo'nalgan talaba kabi toifalarga ajraldi. Shunga ko'ra kafedrada akademik, ilmiy, ijtimoiy muhitni yaratish zarur. Shuningdek, bu kabi

so'rovnomalar orqali talabalarning akademik bo'shliqlarining kelib chiqish sabablari aniqlanadi. Ularning o'rnini qoplashning kamchiqim va samarador mexanizmi yaratiladi. Bu jarayonda talaba-talabaga ustoz tamoyili ishlaydi. Demak, individual ta'lim sharoitida talabalarning o'zlashtirish darajalariga, individual xususiyatlari, talab va extiyojiga moslashtirilgan topshiriqlar to'plami yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Buni mutaxassislik modullaridan talabalarning akademik bo'shliqlari sabablari aniqlab, ularning o'rnini qoplashning kamchiqim va samarador mexanizmini yaratish orqali amalga oshirishimiz mumkin. ya'ni, bu jarayonda talaba-talabaga ustoz tamoyili ishlaydi hamda intensiv dastur asosida sohaga oid tushunchalar, kasbiy lug'at shakllanatiladi(2-ilova). Mutaxassislik modullarini intensiv dastur asosida o'tish orqali talabalarning mustaqil o'zlashtirish hamda pedagogning personal resursi tejalishini ta'minlash uchun assistent talaba kuchidan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Tahlil natijalari asosida individual rivojlanish dasturi tuzildi.

I komponenti-kasbiy motivatsiyani shakllantirish deb nomlanib, bunda talabalar quidagi ishlarni amalga oshiradilar, Yakka suhbat (mutaxasis pedagog bilan, ota onalar bilan, fan o'qituvchilari bilan, bolalar bilan), uchrashuvlar (yetakchi mutaxislar, OTM professor o'qituvchilari bilan, yordamchi mutaxasislar bilan), intervyular (amaliyotga doir metodik maslahatlar, konferensiyalarda nutq, OAV da chiqish), kasbiy motivatsiya xaritasi(egallagan bilimlarining kelajakda amaliyotga tatbiqini taminlash) va "Men o'zgardim" (guruhdoshlari orasida o'zining shaxsiy rivojlanishni aks ettirish) loyihasida ishtirok etadilar. Har bir bosqich ishni amalga oshirish jarayonida talaba bajarilgan ishlar yuzasidan izoh keltiradi. Bunda talabani yozma, video, audio, QR kodli holatdagi hisobotlari qabul qilinadi va tahlil etiladi.

II komponent "Metodik bo'shliqlarni to'ldirish komponenti" hisoblanib, Bunda kuzatuvchilikdan asistentlikka o'tish intervalini qisqartiradi. asistentlikka o'tish jarayonidagi bajarilgan ishlar yuzasidan QR kodli yoki og'zaki bayonot beriladi. Ushbu bosqichni bosib o'tish jarayonida kasbiy xarakter modellarini ishlab chiqishi lozim. Bunda talaba dasr yoki mashg'ulot jarayonida tashkiliy qismini o'tkazishi (refleksiya yoki anannaviy), o'quvchilarni baholashga ko'maklashishi (passiv va tirishqoq o'quvchilarni aniqlashga yordam berish), o'quvchilar bilan yakka ishlashi (dars jarayoniga vaqtida qatnasha olmagan va o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan birgalikda), mustahkamlash qismida didaktik o'yinlar uchun metodikalalr tayyorlash va uni qo'llay olish (mavzuga mos o'quv materiallarini tanlash, bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda metodikalarni tanlash)lari kerak bo'ladi, jarayonning barchasi yuzasidan biriktirilgan metodist pedagog, yoki talabani o'zi tomonidan mustaqil hisobot beriladi. Bu jarayonda talaba o'zining dastlabki holatda qanday ekanligi va individiaul rivojlanish dasturi asosida ish olib borganda qay holatda o'zgarish bo'lganligini anglashiga imkon tug'iladi. Bu esa, oliy ta'lim jarayonida talabalarga korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga tayyorlash amaliyotda rivojlanishida muammolar bo'lgan bolalarda mavjud kamchiliklarni erta va samarali bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Individual kasbiy muhit yaratilgan pedagogik jarayonning eng lideri sifatida Mentor talabani ko'rsatishimiz mumkin. Bu joriy qilingan loyihimiz 5 ta bosqich asosida shakllanib talabalardagi shaxsiy va kasbiy bo'shliqlarni aniqlab tezkor diagnostika qilishga, ularni bartaraf etishda ko'mak bo'luvchi texnologiyalarni o'zida qo'llashga, amaliyot va dars mashg'ulotlarida individual o'zining harakat trayektoriyasini amalga oshirish hamda muntazam qo'llash olishini taminlaydi va quidagi bosqichlar orqali olib boriladi. Kuzatuvchi

bosqichidagi talaba manbaa yig'adi, muammolarni manbaalar orqali o'rganadi, bunda talaba kuzatuvchanlik ko'nikmasini hosil qiladi, muammoni payqash, vaqtdan to'g'ri foydalanish, obyektini to'g'ri tanlash bilish hamda aniqlangan ma'lumotlarni yozma ravish grafik jadvallar shakllantirish orqali umumlashtirishi kerak bo'ladi. To'plangan ma'lumotlar asosida talaba o'z ustida ishlashi ya'ni imitatsion daqiqalar tashkil etishi talab etiladi. Oyna ro'parasida turgan holda tayyorlagan nutqini aniq, ravon, to'xtalishlarsiz bayon etishga sinab ko'rishi kerak bo'ladi. Talaba o'zini dialoglarga tayyorlashi kerak bo'ldi. assistent bosqichida amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayon uchun o'quv didaktik vositalarni tayyorlaydi. Vaqtni taqsimlab olishi va pedagogik jarayonda bevosita qatnashadi.

Darsning aynan bir bosqichi (tashkiliy qism, o'tilgan mavzu bayoni, asosiy qism mustahkamlash, uyga vazifa berish)ni olib boradi so'ngra o'qituvchi tahlil qilib berishi talab etiladi. Keyingi jarayonga o'tish o'qituvchi bilan birgalikda kelishib olinishi kerak bo'ladi. Assistent bosqichi 3 hafta muddatni o'z ichiga oladi. Moderator bosqichida to'plagan dars jarayonlarini o'tish texnologiyalari va metodlarga qo'shgan elementlarni yig'gan holda mualliflik metodlar jamlanmasini to'plashi kerak bo'ladi. Fanlar kesimida metodikalarni jamlaydi, fasilitatsiya jarayonini amalga oshiradi. Bu olib borilgan jarayon ommalashishga hamkor o'qituvchi tomonidan loyiq deb topilsa, bu talaba mentor bosqichiga o'tishi mumkin bo'ladi. Ushbu bosqich 2 hafta muddatni o'z ichiga qamrab oladi. Fasilitator bosqichida talaba harakatlarini qo'llab-quvvatlash, ularni o'qish jarayoniga jalb qilish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish uchun ishlatiladi. Bu yondashuv talaba faoliyatini oshirishga, talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi, fanlar kesimida mualliflik metodlarini yaratadi, mualliflik metodikalar jamlanmasini shakllantiradi, fasilitatsiya jarayonini amalga oshiradi. Mentor-talaba ta'lim jarayonida talabaning nafaqat bilim olish, balki o'z shaxsiy va professional rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydigan samarali yondashuvdir. Mentor, talabaning muvaffaqiyatini ta'minlashga, uning intilishlarini qo'llab-quvvatlashga va har jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Mentor-talaba aloqalari ta'lim jarayonida o'quvchining faqatgina ilmiy yutuqlariga emas, balki uning shaxsiy va professional rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mentor nafaqat bilim beruvchi, balki unga o'z maqsadlariga erishishda yordam beruvchi, unga motivatsiya beruvchi, to'g'ri yo'naltiruvchi shaxsdir. Bu munosabatlar talabaning o'z imkoniyatlarini to'liq ochishga va muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Ushbu loyiha asosida talaba nafaqat shaxsiy rivojlanishi balki boshqalarni ham mentorlik sari rivojlanishga undaydi, nafaqat individual tarzda shaxsiy o'sishni taminlaydi balki har qanday jamoaviy muhitda o'zini tuta olishga ham o'rgatadi.

Individual ta'lim sharoitida talabalarining o'quv amaliy faoliyatini samarali yuritish hamda davriy monitoring yo'lga qo'yish maqsadida "Talaba vizitkasi" mexanizmi yo'lga qo'yildi. Talaba vizitkasi 1 o'quv yiliga mo'ljallangan, 8 ta bo'limdan iborat bo'ldi. Har bir blok o'zini mazmun mohiyati va vazifasiga egadir. Akademik-ijtimoiy faollik blokida talabalarining modullardan o'zlashtirish muvaffaqiyatiga tayaniladi. Bunda talab tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan modullar belgilab olinadi. Demak, mazkur talaba ushbu modul uchun kouch talaba sifatida belgilab olinadi. Ushbu moduldan o'zlashtirishi bo'sh bo'lgan yoki ma'lum sababga ko'ra to'liq tushunib yetmagan talabalarga kouch talaba biriktiriladi. Talaba vizitkasi oliy ta'lim pedagoglari uchun tayanch manbaaa sifatida foydalanildi. Chunki "Talaba

vizitkasi”ga asosan bo’sh o’zlashtiruvchi talabalarga talabalar biriktirish jarayoni Otm pedagoglari tomonidan olib borildi. Va bu faoliyatning natijasi davriy tahlil etib borildi.

Talaba vizitkasining alohida ahamiyati shundan iboratki, talabalarning ushbu kasbni tanlashda avtoritet tan olingan ustozlari, amaliyotchi o’qituvchilarning bazasi ham yaratildi. Talaba vizitkasida ularning manzillari yozib birildi. Bu jarayon malakaviy va pedagogik amaliyotga biriktirilgan otm pedagogi tomonidan ustoz sifatida biriktirilgan, avtoritet o’qituvchi sifatida tanlangan pedagog bilan bevosita muloqot jarayoni va faoliyat integratsiyasi ta’minlandi. Natijada talabalarning kasbiy rivojlanishi faoliyati obyektiv baholash sharoiti yaratildi. Ijtimoiy-ijodiy faollika yo’naltirilgan blokda talaba o’zining shaxsiy potensialini hamda kouchlikka tanlangan fanga ma’sul pedagogning xulosasi asosida ish yuritilishi nazarda tutilgan. Talabaning kasbiy-amaliy faolligi blokida talabalar kasbiy ta’limiy muommolarni aniqlaydi, uning yechini topish uchun shaxsiy trayektoriyasini belgilaydi, bu yo’nalishda unga turtki bo’luvchi kasbiy xulosalar asosida amaliyotdagi muommolar yechimi ishlab chiqiladi. Talaba vizitkasi orqali talabalarning individual xususiyatlarini belgilagan xolda ularni diagnostika qilishga va ulardagi fan doira didatik tushunmovchiliklarni korreksiyalashga, buning natijasida esa individual kasbiy rivojlangan muhit paydo bo’lishiga zamin yaraladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. Central Asian journal of social sciences and history, 4(1), 101-105.
2. Dehqonova, M. (2023). The first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. Science and innovation, 2(B2), 55-58.
3. Dehqonova, M. G., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limda ko ‘rishida muammosi bo ‘lgan o ‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. Maktab va hayot, 1(3), 31-35.
4. G’iyosiddinovna, D. M. (2022). LOGOPEDIK MASHG’ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ARTIKULYATSION GIMNASTIKA O’RNI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 360-365.
5. Muborak, D., & Farangis, I. (2022). NUTQ KAMCHILIKLARINI PAYDO BO ‘LISHIDA ARTIKULYATSION APPARAT HOLATINI O ‘RGANISH ZARURATI. Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(10), 366-370.
6. G’iyosiddinovna, D. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHDA NUQSONI BO’LGAN BOLALARDA KORREKSION ISHLARNING AHAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 475-471.
7. Muborak, D., & Shahnoza, M. (2022). KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA METODIK JAMLANMALAR YIG’ISH. Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(10), 371-376.
8. G’iyosiddinovna, D. M. (2022). TA’LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH VA TATBIQ ETISH. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 340-344.
9. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). MAXSUS EHTIYOJLI BOLALAR TA’LIM TARBIYASI MASALASI BUGUNGI KUNDA ENG DOLZARB MASALASI. Академические исследования в современной науке, 1(20), 121-125.

10. Dehqonova, M., & Isroilova, M. (2022). MAXSUS TA'LIM TARBIYA OLAYOTGAN BOLALAR MEYORIY HUQUQIY TA'LIMINI TASHKIL ETISH. Models and methods in modern science, 1(18), 54-57.
11. Dehqonova, M., & To'raqulova, D. (2022). DAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O 'QUVCHILARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(26), 31-34.
12. Dehqonova, M., & Fayzullayeva, R. (2022). TA'LIM BARCHA UCHUN. INKLUZIV TA'LIM MUQARRAR TA'LIM. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(27), 178-182.
13. Dehqonova, M., & G'ulomnazarova, O. (2022). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA MOSLASHUVCHANLIK TUSHUNCHASI TALQINI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(27), 174-177.
14. Saparovna, G. A., Abdumajitovna, A. S., Sirojovna, I. O., Qizi, D. M., & Azizovna, E. N. (2023). The Uniqueness of Inclusive Higher Professional Education in Uzbekistan. Journal of Advanced Zoology, 44.
15. Qizi, D. M. G. I., & Azam, E. (2024). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLARNI INTERFAOL RESURSLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(6-1), 196-200.
16. G'iyosiddinovna, D. M., & Azam, E. (2022). ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABDAN KEYINGI TA'LIMIDA KASBIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSLARARO MUNOSABAT O'RNATISHGA KO'MAKLASHISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI, 211-213.
17. Dehqonova, M. (2023). KORREKSION MASHG'ULOT RAHBARI OSTIDA RITMIKA HARAKATLARNI TAKRORLASH VA UNING SAMARADORLIGI. Молодые ученые, 1(1), 34-35.
18. Dehqanova, M. (2023). O 'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH JARAYONLARINING DINAMIKASI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 3), 173-176.